

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 7, 31 Июль

## МАКТАВГАЧА ТА'ЛИМДА МЕНЕЙМЕНТ ФАОЛИЯТИ ТУРИ ВА БОШҚАРУВ ТИЗИМИ.

Surxondaryo viloyati Termiz davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim fakulteti 3-kurs talabasi.

**Rahimova Xosiyat Uralovna**

**Annotatsiya:** Maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv tizimini to'g'ri tashkil etish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tizimida boshqarishni turli xil ahamiyatli turlari mavjud bo'lib, maqolada shular haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** uzlusiz, takomillashtirish, bilish, , reja, predmet, tamoyil, rag'bat, metod, qonuniyatlar, funsiyalar, rejalahtirish, boshqarish, loyihalashtirish.

### ВИД УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И СИСТЕМА УПРАВЛЕНИЯ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ.

**Аннотация:** Правильная организация системы управления в системе дошкольного образования является одной из главных задач современности. В системе дошкольного образования существуют различные важные виды управления, и в статье представлена информация о них.

**Ключевые слова:** непрерывный, совершенствование, знание, план, предмет, принцип, стимул, метод, законы, функции, планирование, управление, проектирование.

### TYPE OF MANAGEMENT ACTIVITY AND MANAGEMENT SYSTEM IN PRESCHOOL EDUCATION.

**Annotation:** Correct organization of the management system in the preschool education system is one of the main tasks of today. There are various important types of management in the preschool education system, and the article provides information about them.

**Keywords:** continuous, improvement, knowledge, , plan, subject, principle, incentive, method, laws, functions, planning, management, design.

Maktabgacha ta'lim sohasi uzlusiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib, u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik yillarida respublikada ta'lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 7, 31 Июль

siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlari darajasiga ko‘tarildi. Biroq o‘tkazilgan tahlillar maktabgacha ta’lim sohasida olib borilayotgan ishlarning samarasi va natijasi etarli darajada emasligini ko‘rsatmoqda. Jumladan, so‘nggi 20 yil davomida davlat tasarrufidagi maktabgacha ta’lim tashkilotlari soni 45 foizdan ziyodroq kamaygan bo‘lib, bugungi kunda respublika bo‘yicha bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinishi 30 foizni tashkil etadi. Shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining moddiy-texnika bazasi zamonaviy talabga javob bermaydi.

Maktabgacha ta’lim tizimida variativ dasturlar joriy etilmagan, bolalarni maktabga tayyorlash bo‘yicha muqobil, moslashuvchan modellar yetarli darajada rivojlanmagan hamda taraqqiy etgan mamlakatlar singari ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, matematik, jismoniy va ijodiy rivojlantirish, atrof muhit bilan tanishuvga yo‘naltirilgan maxsus davlat ta’lim dasturlari tatbiq qilinmagan. Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning aksariyati o‘rta maxsus ma’lumotga ega bo‘lib, bu bolalarni maktab ta’limiga talab darajasida tayyorlash imkonini bermaydi. Bundan tashqari, maktabgacha ta’lim sifati monitoringini yuritish tuzilmaviy va tashkiliy jihatdan nazarda tutilmaganligi sababli, maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi ta’lim jarayonining sifati va samaradorligini baholash zamon talablariga javob bermaydi. Xorijiy davlatlar ilg‘or tajribasining tahlili zamonaviy maktabgacha ta’lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratishga yo‘naltirilganligi bilan tavsiflanib, bolaning ijobiy ijtimoiylashuvi imkoniyatlarini namoyon qilish, uning har tomonlama shaxsga oid ma’naviy-axloqiy va ongli rivojlanishi, maktabgacha yoshga oid tegishli faoliyat turlari asosida tashabbuskorligi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, muloqot doirasida katta yoshdagilar va tengdoshlari bilan hamkorlik qilish imkoniyatlarini ochishga qaratilgan.

Ta’limni boshqarish qonuniyatları boshqaruvin jarayonida turli elementlar va hodisalarining obyektiv ravishda mavjud bo‘lgan, takrorlanuvchi o‘zaro aloqalarini aks ettiradi. Ular umumiyligi va xususiyiga bo‘linadi. Umumiyligi qonuniyatlar boshqaruvning barcha tizimlariga xos bo‘lsa, xususiyatlari ayrim ta’lim tashkilotlari va tashkilotlarining amal qilishi bilan bog‘liq. Quyidagilarni boshqaruvning umumiyligi qonuniyatları sirasiga kiritish mumkin: ustuvor samaradorlik va ongli rejali boshqarish; boshqaradigan va boshqariladigan tizimlarning, boshqarish subyekti va obyektining o‘zaro munosabati, boshqaruvida mehnat taqsimoti va kooperatsiyasi jarayonlarini kuchaytirish. Ushbu qonuniyatlarini ko‘rib chiqamiz.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 7, 31 Июль

Ta'limni ongли boshqarishning ustuvor samaradorligi qonuniydir, chunki unda kechayotgan jarayonlarni rejali boshqarish tizimi amalda ushbu jarayonlarni beixtiyor tartibga soladigan boshqarish tizimlaridan samaraliroqdir. Hozirgi ta'limda boshqarishning barcha darajalarida dasturiy-maqsadli yondashuv, tizimli yondashuv va tahlil keng qo'llanilayotganligi buning dalilidir.

Boshqaradigan va boshqariladigan tizimlar, boshqarish subyekti va obyektining o'zaro munosabati qonuniyat ekanligi boshqaruv sohasining boshqaruv obyekti talablariga muvofiqligini bildiradi. Chunonchi, iqtisodiyotni rivojlantirishda 90-yillarning o'rtalaridan ko'zga tashlangan siljishlar mamlakatimizda butun boshqaruv apparatini muayyan o'zgartirishni talab qildi, bu hol 1997-yildan boshlangan ta'lim va kadrlar tayyorlashdagi islohotlar majmuida o'z ifodasini topdi. Natijada ta'lim va uni boshqarish tizimi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlar, fan-texnika taraqqiyoti talablariga mos tushgan holda barqaror rivojlanish tamoyilini kasb etdi.

Boshqaruvda mehnat taqsimoti va kooperatsiyalash jarayonlarining kuchayishini ham ta'limni boshqarishning umumiyligi qonuniyatlariga kiritish mumkin. Qonuniyat, birinchidan, boshqaruvda mehnatning bundan keyin ham gorizontal va vertikal taqsimotini aks ettiradi, bu hol boshqaruvning rivojlanganligi, boshqariladigan tizimlar ko'lamli kengayganligi, yangi funksiyalar va faoliyat turlari paydo bo'lganligi bilan bog'liqdir. Ikkinchidan, mehnat taqsimoti uning muvofiqlashtirilishini, ya'ni boshqaruv mehnatini kooperatsiyalashda o'z ifodasini topadigan boshqaruv subyektlari ishi muvofiqlashtirilishini taqozo qiladi. Agar umumiyligi qonuniyatlar umuman boshqaruvga xos bo'lsa, xususiy qonuniyatlar boshqaruvning ayrim tomonlari va tizimlari uchun xosdir.

Quyidagilarni xususiy qonuniyatlar sirasiga kiritish mumkin: boshqaruv funksiyalarining o'zgarishi, boshqaruv bosqichlari sonining maqbullashtirilishi, boshqaruv funksiyalarining jamlanishi va nazoratning keng tarqalish qonuniyati kabilalar.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Djurayev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lim menejmenti. –T.: Voris-nashriyot, 2006. -259 b.
2. Djurayev R.X., Turg'unov S.T. Umumiyligi o'rta ta'lim tashkilotlarini boshqarishda menejmentning asosiy tushunchalari. –T.: Fan, 2006.
3. Samarov R. Ta'lim tizimida din psixologiyasi (tizimli-funksional yondashuv) // Zamonaviy ta'lim jurnalı. 2013, 8-son.

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:  
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

**Researchbib Impact factor: 13.14/2024**

**SJIF 2024 = 5.444**

**Том 2, Выпуск 7, 31 Июль**

4. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari. T., 2018 у.
5. Жигунов В.Г., Кишкел Е.Н. Основы управленческой деятельности: Учебник. - М., 1994.
6. Володина Т. В. Психолого-педагогическая модель развития жизнестойкости педагога: диссертация ... кандидата психологических наук . - Ульяновск, 2014.
7. Каширский Д.В. Психология личностных ценностей // Автореф...дисс... доктора психологических наук. - Москва, 2014.